

Narsalarning asl mohiyatini bilishga olib boradigan
yo'llar – hissiy anglash, rost xabar va aqlidir.

Imom Moturidiy

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya – الماتريدية – Матүридизм



MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матүридизм



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Музаффар КОМИЛОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

Уйғун ҒАФУРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Шоазим МИНОВАРОВ – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

Давронбек МАХСУДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Зоҳиджон ИСЛОМОВ – филология фанлари доктори, профессор

Аҳаджон ҲАСАНОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Шовосил ЗИЁДОВ – тарих фанлари доктори, доцент

Жамолiddин КАРИМОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

Назир Муҳаммад АЙЁД (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азҳар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби

Режеп ТУЗЖУ (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети ҳузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори

Аширбек МУМИНОВ – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси

Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

Дониёр МУРАТОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Одил ЭРНАЗАРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

*Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари
бўйича қўмитасининг 2023 йил 23 ноябрдаги
04-07/8931-сонли хулосаси асосида тайёрланди.*



Муассис:

**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМий-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

Бош муҳаррир:

Жамолiddин Каримов,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:

Зафар Фаҳриддинов,
*Исломишунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Саҳифаловчи:

Зарифжон Арслонов

Дизайнер:

Зарифжон Ғуломов

«Мотуридийлик» журнали
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабрда Ўзбекистон
Республикаси Президенти Администрацияси
ҳузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги томонидан
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй.

E-mail: maturidijournal.uz

Web-sahifa: info@moturidijournal.uz

Телефонлар: (+99871) 244-35-21,
(+99871) 244-35-47

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Zohidjon Islamov.

«Муқаддамату-л-адаб» арабча сўзлигининг матний таҳлили..... 5

Ramil Adygamov.

Междисциплинарные подходы в исследованиях истории богословия..... 13

Zafar Fakhriddinov.

«Вужух ва назоир» илмида ижод қилган олимлар ва унга оид асарлар таҳлили 23

Jurabek Chutmatov.

Ҳаким Термизий тафсирининг илк наشري 31

Ahmadkhan Alimov.

Абул Лайс тафсири манбалари ва муфассирнинг услублари..... 42

ИСЛОМ ҲУҚУҚИ

Azat Sarsenbaev, Nurulloh Turambetov.

Бурҳониддин Марғиновийнинг «Ҳидоя» асарида Қуръондан ҳуқуқий манба сифатида фойдаланиш услуби 51

Muhammadnur Murodkhanov, Khaydarali Yunusov.

Imom Saraxsiy – xalqaro huquqshunos olim..... 59

ДИНШУНОСЛИК

Nigora Yusupova.

Ўзбекистонда давлат қурилиши дунёвийлик принципларига асосланишининг ҳуқуқий асослари 65

Odiljon Ernazarov.

Shamsuddin Samarqandiyning xristianlik haqidagi qarashlari 74

Jurabek Sodikov.

«Ta'vilot ahl as-sunna»da keltirilgan noislomiy din va e'tiqodlarga oid ma'lumotlar tahlili 80

Shahzoda Abduraimova.

Distribution of religious media contents on websites in Germany 90

Behzodbek Soipov.

Жамият ижтимоий-сиёсий барқарорлигини таъминлашда бағрикенглик тамойилининг аҳамияти..... 96

ИСЛОМ ТАРИХИ

Sanabar Djurayeva.

Toshkent viloyati ziyoratgohlarining tasnifi 103

Muhabbatkhan Agzamova.

«Тарих ар-русул ва-л-мулук» асарининг тарихий жараёнларни тадрижий ёритишдаги аҳамияти 108

Lola Azimova.

Марказий Осиё цивилизацияси ривожда илмий масканларнинг ўрни..... 115

Oybek Sotvoldiyev.

«Ат-Табоқот ал-кубро» асари – сийрат ва тарожимга оид манба сифатида 122

Zarifjon Arslonov.

Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarining ilmiy tasnifi va ularda ko‘tarilgan
mavzular tahlili 130

ИСЛОМ МАНБАШУНОСЛИГИ

Doniyor Muratov.

Арбаин жанри хусусида 139

Akmalkhan Akmalkhanov.

«Miftoh al-ulum» asarida bir harfdan iborat yordamchi so‘zlar talqini 148

Dilfuza Sagdullaeva.

Рабғузий ижодида оятларни қўллашнинг услубий хусусиятлари 156

Feruza Nizamova.

Dehlaviy ijodida badiiyat an‘analari 163

Bahodirjon Azamov.

Ҳақим Термизий «ал-Амсол мин ал-Китоб вас-сунна» асарининг
манбашунослик таҳлили 171

Zarifjon Z. ARSLONOV,

Doctoral Student of the International

Islamic Academy of Uzbekistan.

Kadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: arslonovzarifjon007@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023/4/17

**ALIXONTO‘RA SOG‘UNIY
ASARLARINING ILMIY TASNIFI VA
ULARDA KO‘TARILGAN MAVZULAR
TAHLILI**

**SCIENTIFIC CLASSIFICATION OF
ALIKHANTURA SAGHUNI'S WORKS
AND THE ANALYSIS OF TOPICS
RAISED IN THEM**

**НАУЧНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ РАБОТ
АЛИХОНТОРЫ САГУНИ И АНАЛИЗ
ПОДНЯТЫХ В НИХ ТЕМ**

KIRISH

Vatanimiz qadimdan jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz tafakkuri mahsuli bo‘lgan qadimiy yozma manbalar va asarlar xalqimizning buyuk ma‘naviy boyligidir. Ana shunday nodir asarlar qatoriga o‘tgan asrning zabardast olimlaridan biri bo‘lmish Alixonto‘ra Sog‘uniyning asarlarini namuna sifatida e‘tirof etsak, adashmagan bo‘lamiz. Olimning asarlari sodda tilda yozilganligi, hamda islom tarixini yoritishda ishonchli ma‘lumotlardan foydalanilgani sababli hozirda ularga bo‘lgan qiziqish kundan kunga oshib bormoqda.

ASOSIY QISM

Alixonto‘ra Sog‘uniy davlat arbobi bo‘lish bilan bir qatorda ijod kishisi ham edi. U o‘zi qiziqqan hamda muhim deb hisoblagan sohalarda bir necha asarlar yozgan. Ularda ko‘tarilgan masalalar turfa xilligi bilan ajralib turadi. Olim qalamiga mansub asarlarning bizga ma‘lum bo‘lgan soni sakkizta bo‘lib, bulardan dastlabkisi, tibbiyotga oid «Shifo al-ilal» nomli risolasidir. Alixonto‘ra mazkur risolani asirlik yillarida Sharqiy Turkistonda Xitoy harbiylaridan qochib yurgan vaqtda jon saqlash uchun yashiringan Kunas nohiyasidagi qishloqda yozib tamomlagan. Bu haqida olimning o‘g‘li Asilxonto‘ra ma‘lumot

bergan bo‘lib, unga ko‘ra, Sog‘uniy «Shifo al-ilal» («Dardlar davosi») risolasini 1937-yili iyun oyida Sharqiy Turkistonning G‘ulja shahrida zolimlardan qochib, Kunas tog‘larida Toyoshuv, Qo‘yoshuv degan yerlarda qirg‘iz birodarlari orasida yozgan (Alixonto‘ra Sog‘uniy, 1996:186). Albatta, bu kabi asarni yozish insondan ma‘lum darajadagi bilim va ko‘nikmani talab qiladi. Sog‘uniyda esa tibbiyot sohasida o‘ttiz yillik tajriba mavjud edi. Olimning xotiralarini o‘zida mujassam etgan «Turkiston qayg‘usi» asarida «Shifo al-ilal»ning yozilish sabablari xususida ma‘lumot berilgan. Unga ko‘ra, Sog‘uniy tabobat bilan shug‘ullanish davomida orttirgan tajribalari asosida umrining oxirida o‘z avlodlariga xotira bo‘lib qolishi uchun turkiy tilda «Shifo al-ilal»ni yozgan (Alixonto‘ra Sog‘uniy, 2007:226-227). Sog‘uniy Abu Bakr Roziy, Abu Ali Husayn ibn Sino, ulardan keyingi musulmon tabiblaridan tortib, Yevropa tibbiyotigacha xabardor bo‘lgan. Shu bois bo‘lsa kerak, keyinchalik «Turkiston qayg‘usi» kitobida «Farobiyar, Ibn Sinolar chiqqan bu ulug‘ Vatanning va millatning kelgusi istiqboli uchun hech kim qayg‘urmas edi» (Alixonto‘ra Sog‘uniy, 2007:39), deb chuqur iztirob bilan yozgan.

MUHOKAMA

«Shifo al-ilal»ga kiritilgan asosiy masalalar Ili, G‘ulja, Turkiston, Farg‘ona musulmonlari orasida ko‘p tarqalgan «illat-kasallar» va ularning «shifo-davolari» haqida bo‘lib, bular Sog‘uniyning 25-30 yil davomida «shu ilm ichida xizmat qilib, ko‘zi bilan ko‘rgan, qo‘li bilan ushlab tajriba qilgan»lariga asoslanadi (Alixonto‘ra Sog‘uniy, 1996:188). Asarda tilga olingan masalalar huqna qilish, sarsom illati, zotiljam, istisqo, xafaqon illati, qursoq og‘riq, habtanakorni yasash, yurak burug‘i, yo‘tal, diqqinafaslik, mafosil, siydik tutulg‘oni, so‘znak, xayza kasalligi, buvosil, qulinch, ya‘ni so‘qir ichak og‘rig‘i, tashannuch, yaraqon, amroz rahm, ya‘ni bachadon kasalliklari, yosh bolalar kasalligi, himmo, azhar – bolaning ichi o‘tishi, dorixonada bor dorilar, tomir tutish kabilaridan iborat.

Sog‘uniy asarda bevosita tibbiy ma‘lumotlarni berar ekan, unda dastlab, kishining mijozi va uning to‘rt xil bo‘lishi, jumladan, safro – quruq-issiq, savdo – ho‘l-issiq, qon – quruq-sovuq, balg‘am – ho‘l-sovuqdan iborat ekani, shuningdek, ularning farq va xususiyatlari, joylashgan o‘rinlari to‘g‘risida so‘z yuritgan. Xususan, safro jigarga osilgan o‘t xaltasida, savdo qoratolda joylashgani, balg‘am o‘pkada, qon esa tananing barcha qismida bo‘lishini ta‘kidlagan (Alixonto‘ra Sog‘uniy, 1996:188-189). Alixonto‘ra

Annotatsiya. Maqolada Alixonto'ra Sog'unining ilmiy-faoliyati davomida yozgan asarlarini va ularning tasnifi haqida so'z boradi. Sobiq sovet tuzumi XX asrning eng insonparvar, betakror, buyuk asarlarini qabul qilishga tish-tirnog'i bilan qarshi edi. Lekin shunday bo'lsada, Alixonto'ra Sog'uniy bu xayrli ishga qo'l urib ming bir mashaqqat ila asarlarini kitobxonlar qo'lga yetib kelishi uchun o'z jonini fido qildi. Maqolada muallif asarlarini yozishda, boshidan qanday sinovli kunlarni o'tkazgani, qalbidagi so'zlari yoritilgan. Bundan tashqari, Alixonto'ra Sog'uniy o'z davrining tengi yo'q allomasi bo'lgani, ilmning barcha sohalarida qalam yurgizib, o'zidan so'ng ulkan ilmiy meros qoldirgani, qolaversa, diniy-ma'rifiy sohada yozgan asarlari barcha ilm ahllari e'tiborida ekani ta'kidlanadi.

Olim ilmiy-faoliyati davomida birqancha asarlar yozgan bo'lib, bizgacha faqatgina 8 ta asari yetib kelgan. Sog'unining «Shifo al-ilal» nomli risolasi tibbiyotga oid bo'lsa, «Uyg'onaylik, uyg'onish vaqti keldi» risolasi hamda «Bizdan emasdir Vatanni sevmaganlar» she'riy to'plamlari insonda mehr-oqibat va ona vatanga muhabbat kabi xislatlarni shakllantiradi. Olimning «Tarixi Muhammadiy» asari Muhammad (s.a.v)ning tug'ilishlaridan tortib to islom xalifalari davrigacha bo'lgan bosqichlarda islom dinining yoyilishi va rivojlanish voqealari aks etgan. «Turkiston qayg'usi»da esa, olim Turkiston muxtoriyatining yaqin o'tmishdagi qonli kechinmalarini bayon qilgan. Bundan tashqari Alixonto'ra Sog'uniy bir nechta she'riy to'plamlar ham yozgan.

Kalit so'zlar: Sog'uniy, Shifo al-ilal, Turkiston muxtoriyati, «Tarixi Muhammadiy», siyrat, tabobat.

Abstract. The article talks about Alikhantura Saghuni's works written during his scientific activity and their classification. During his career, the scientist wrote several works, only 8 of which have reached us. While Soguni's treatise "Shifa ul-ilal" is about medicine, works such as "Let's wake up, it's time to wake up" and "Those who don't love the country are not from us" shape human qualities such as kindness and love for the motherland. The scientist's work "History of Muhammadi" shows the events of the spread and development of Islam from the birth of Muhammad (pbuh) to the era of the Islamic caliphs. In "The Sorrow of Turkestan", the scientist described the bloody experiences of Turkestan autonomy in the recent past. In addition, Alikhantura Soguni wrote several poetry collections.

During his scientific activity, the scientist wrote several works, only 8 of which have reached us. While Soguni's treatise "Shifa ul-ilal" is about medicine, works such as "Let's wake up, it's time to wake up" and "Those who don't love the country are not from us" shape human qualities such as kindness and love for the motherland. The scientist's work "History of Muhammadi" shows the events of the spread and development of Islam from the birth of Muhammad (pbuh) to the era of the Islamic caliphs. In "The Sorrow of Turkestan", the scientist described the bloody experiences of Turkestan autonomy in the recent past. In addition, Alikhantura Soguni wrote several poetry collections.

Keywords: Shifa al-Ilal, , Turkestan autonomy, «Tarikhi Muhammadi, seerah, medicine.

Аннотация. В статье идёт речь о произведениях Алихантора Сагуни, написанных за время его научной деятельности, и их классификация. Бывший советский режим изо всех сил сопротивлялся принятию самых гуманных, уникальных и великих идей XX века. Но даже в этом случае Алихантора Сагуни посвятил себя этому благу делу и пожертвовал своей жизнью ради того, чтобы его произведения дошли до читателей. В статье описаны трудные дни, проведенные автором при написании своих произведений, а также его проникновенные слова. Кроме того, Алихантора Сагуни был непревзойденным ученым своего времени, писал во всех областях науки и оставил после себя огромное научное наследие, подчеркивается, что оно находится в центре внимания ученых.

За время своей научной деятельности ученый написал несколько работ, но до нас дошли только 8 из них. В то время как трактат Сагуни «Шифа ул-илал» посвящен медицине, такие произведения, как «Давайте просыпаемся, пора просыпаться» и «Те, кто не любит страну, не из нас» формируют такие человеческие качества, как доброта и любовь к Родине. В труде учёного «История Мухаммада» показаны события распространения и развития ислама от рождения Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха) до эпохи исламских халифов. В «Печали Туркестана» ученый описал кровавые переживания Туркестанской автономии в недавнем прошлом. Кроме того, Алихантора Сагуни написал несколько поэтических сборников.

Ключевые слова: Сагуни, Шифа ал-илал, Туркестанская автономия, «История Мухаммеда», сира, знахарство.

qaysi bir kasallikka to'xtalsa, bu kasallikni kimlar nima deb atashini ham keltirib o'tgan. Masalan, asarda arabchadagi hammaning isitma, bezgakka tengligi, huqna esa amalcha, ya'ni klizma qo'yish ekani hamda bular islom hukamolariga oldindan ma'lumligi

bayon qilingan. Shuningdek, sarsom yuqumli terlamani anglatishi va u do'xtirlar tomonidan tib deb atalishi yoki zotiljam turkiyda qog'un, qirg'izlarda qobirg'adan seskangan, qon tukurgan sanchiqqa nisbatan ishlatilishi, rus do'xtirlari uni vospaleniye,

istisqo kasalligini esa vodyanka deb atashi (Alixonto'ra Sog'unuiy, 1996:191-199) haqida ma'lumot bergan. Sog'unuiy har doim biror masalani o'rta qo'ysa, albatta, uni din bilan qiyoslashga, yechimni undan topishga odatlangan. Bu holatni «Shifo al-ilal»da ham kuzatish mumkin. Masalan, ushbu risolaning dastlabki qismida ilm ikki turli bo'lishini, ya'ni din ilmi va tan ilmidan iborat ekanligini, diniy ilmlarni bilmaslik insonning imoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, oxiriga zarar bo'lishi mumkinligini, tan ilmini bilmaslik esa turmush-tirikchilik rohati buzilishiga olib kelishini ta'kidlagan. Shuningdek, so'zining davomida «din ilmi musulmonchilikka lozim bo'lgan shariat ilmi, tan ilmi esa tan-sog'liqni saqlaydigan tib ilmi» ekanligini aytgan. Sog'unuiyning fikricha, «tib ilmini bilmak din ilmini bilmak kabi har bir musulmonga farz»dir. Olim bu fikrni «agar bir shaharda imon, islom-musulmonchilikni biladigan, uni o'qitib-o'rgatadigan ulamo (olimlar) bo'lmasa, shariatga ko'ra, bunday shaharda musulmon kishining turishi durust emas», degan hukmga qiyosan bergan. Ya'ni, unga ko'ra, «bir shaharda issiq, sovuqni ayirib, og'riq, kasalni ajratib turadigan hukamo (tabiblar) bo'lmasa, u yerda qolish ham durust emas». Ushbu qiyosning ahamiyatini «har bir kasblarda agar kishi xato qilsa, zarari molga yetar, agar tib ilmida xato qilsa, jonga yetar» (Alixonto'ra Sog'unuiy, 1996:188) jumalari bilan izohlash mumkin.

Risola dastlab, «Sharq yulduzi» jurnalining 1996-yil 6-sonida Alixonto'ra o'g'li Asilxonto'ra tomonidan nashr etilgan (Alixonto'ra Sog'unuiy, 1996:186-222). Noshir risolaning kirish qismida «So'z boshi» va «Munojot» berib o'tgan. Tibbiyotga oid ushbu risolaga Shamil Almazbekov tomonidan sharh ham yozilgan bo'lib, u muallifning «Benazir ustoz, yoxud Alixonto'ra Sog'unuiy tibbiy merosiga bir nazar» (Almazbekov Sh., 2015:136) nomli xotira asarining tarkibiy qismi sifatida «Shifo al-ilal» («Dardlar davosi») risolasi sharhi» sarlavhasi ostida berilgan (Almazbekov Sh., 2015:136).

Alixonto'ra tomonidan qalamga olingan ikkinchi asar «Uyg'onaylik, uyg'onish davri keldi» (Almazbekov Sh., 2015:53-128) nomli risoladir. U muallifning 1945-yilda Cho'chak shahrida qilgan ma'ruzasi matnidan iboratdir. Ushbu risolada Alixonto'ra har bir inson tug'ma qobiliyatlarga ega bo'lishini, mazkur qobiliyatlarni yuzaga chiqarish uchun esa ilm hamda tarbiya olishi lozimligini aytib o'tgan. Sharqiy Turkistonning xitoyliklarga tobe bo'lib qolishiga muallif davrigacha mazkur hudud

farzandlarining ta'lim olishdan uzoq tutilganligi sabab qilib ko'rsatilgan. Muallifning ushbu fikrlari asoslidir. Ma'lumki, tarixdagi mustamlakachi davlatlar o'ziga qaram xalqlarni oson boshqarish uchun aholini ta'limdan uzoqlashtirib, savodsiz holga tushirish usulini qo'llagan. Sog'unuiy shuningdek, xitoyliklarning Sharqiy Turkiston xalqlarini o'zlariga tobe tutishi natijasida millatning axloqi buzila boshlagani, din, millat, vatanga muhabbat singari tuyg'ulardan uzoqlashgani, qimorbozlik, yolg'onchilik, moddiyatga bog'lanib qolish, fahsh va boshqa shu kabi axloqsiz illatlarning ko'paya boshlaganiga urg'u berib o'tgan. Ushbu holat rus mustamlakasiga aylangan hududlarda ham ayni shaklda namoyon bo'ladi. Alixonto'ra shuningdek, mazkur risolada Sharqiy Turkistonning Xitoy tomonidan qo'lga olinishidan keyingi davrini uch turga bo'lib, ularga nisbatan o'z fikrini bildirib o'tgan. Muallif bu davrlarni xonlik, respublika va Sheng Shisay davrlari nomi bilan atagan hamda mazkur uch davrda sodir bo'lgan ko'ngilsizliklarni tilga olgan. O'zi va safdoshlari haqida gapirganda, diniy omillar oldingi o'ringa qo'yilganini ko'rish mumkin, jumladan, Allohning irodasi bilan hukumat ta'sis etganlari, ajdodlardan meros bo'lib qolgan oy hamda yulduz tasviri va shahodat kalimasi tushirilgan bayroqni ko'tarib chiqqanliklari bayon etilgan. Muallif tomonidan berilgan ushbu ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri keladi. Chunki, zamonaviy tadqiqotchilar ham mazkur ma'lumotlarni o'zlarining ilmiy ishlarida qayd etishgan (Muhammed Saur, Abdulloh Avt, Kurash Tursun, 1999:75).

Sog'unuiyning Sharqiy Turkistondagi tarixiy nutqida Xitoyning yaponlar bilan olib borayotgan kurashiga ham e'tibor qaratgan. Jumladan, xitoyliklarga Sharqiy Turkistonni o'z egalariga qoldirishni va yaponlarga boy berilgan hududlarni qaytarib olish uchun harakat qilishlarini taklif sifatida aytib o'tgan. Shuningdek, u xitoyliklarni Sharqiy Turkistondan chiqarib yuborish uchun o'zaro birlik shart ekanini urg'ulagan. Alixonto'ra o'z so'zining yakunida asirlikdan qutulish uchun kelajak avlod o'z huquqlariga ega chiqadigan va dinini himoya qila oladigan insonlar bo'lib yetishishi lozimligini ta'kidlagan. Sog'unuiy ushbu tavsiya orqali dinning jamiyat hayotidagi ahamiyatini ma'lum darajada tushuntirishga harakat qilgan.

1946–1972-yillar oralig'ida Alixonto'ra Sog'unuiy tomonidan yozilgan she'rlar to'plami ham mavjud bo'lib, u «Bizdan emasdir lar vatanni sevmaganlar» nomi bilan tanilgan. Mazkur to'plamdan o'rin olgan o'ttiz ikkita she'r, ellikdan ortiq she'rlarni o'zida

jamlagan «Baxtlik nedur» to'plamiga ham kiritilgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:250). Mazkur to'plamda muallifning vatan, ilm o'rganish, tabiatni sevisht, sog'liqning ahamiyati, til va din to'g'risida yozgan she'rlari jamlangan. Shuningdek, unda ko'plab nasihatlar, Alixonto'ra hayotidagi ba'zi voqea-hodisalar va oila a'zolariga bag'ishlangan she'rlar ham mavjud. Alixonto'ranig boshqa asarlarida xususan, xotira kitoblarida keltirilmagan ba'zi ma'lumotlar ushbu to'plamga kiritilgan. Masalan, uning uylanish hikoyasi, xotini Tojixonning vafot etishi, ukasi Sattorxon va akasi Olimxon to'g'risidagi ma'lumotlar Alixonto'raning she'rlarida yoki ularning izohida o'rin olgan. Shuni aytib o'tish lozimki, muallif o'zining «Turkiston qayg'usi» asarida ham akasi Olimxonto'ra haqida ma'lumot berib o'tgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2020:44-45). To'plam 2005-yilda F. G'afforov tomonidan ayni nom ostida Toshkentda nashr etilgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2007:18).

Alixonto'ra Sog'unuyning «Turkiston qayg'usi» nomli asari ham mavjud bo'lib, u muallifning o'zi ko'rib guvohi bo'lgan voqea-hodisalarga asoslangan. Sog'unuy ushbu asarining dastlabki qismini qarilik davrida, ya'ni yoshi saksonga yetgan bir vaqtda yozgan. Bu 1969-yilga to'g'ri keladi. Muallifning shaxsan o'zi tomonidan yozilgan ushbu qismda 1938-yilgacha bo'lgan voqealar aks ettirilgan. Asarining nomlanishi xususida muallif: «Qalamim tilidan dardlik so'zlarim, qonliq ko'zlarimdan oqqan yosh, bu yozayotgan kitobimning betlarini bo'yamoqda edi. Shuning uchun bu kitobimning nomini «Turkiston qayg'usi» deb nomladim» (Alixonto'ra Sog'unuy, 2007:18) kabi fikrni bildirgan. Asarning qolgan qismini yozishga ko'zida paydo bo'lgan xastalik to'sqinlik qiladi. Shu sababli 1938-yildan keyingi jarayonlarini yoritishni ikkinchi o'g'li Asilxonto'raga vasiyat qiladi va shu tariqa asarning ikkinchi qismi ham dunyoga keladi. Mazkur ikkinchi qismning nomi dastlab «O'tmishdan saboqlar» nomini olgan bo'lsa, 2011-yil Istanbulda «Turkiston qayg'usi»ning davomi sifatida «Turkiston qayg'usi 2» nomi ostida nashr etiladi (Alixonto'ra Sog'unuy, 2011). Ikkinchi kitobning ahamiyati shundaki, unda birinchi kitobda sanalari berilmagan ba'zi voqea-hodisalarning yillari ko'rsatilgan, bir nechta jumla bilan keltirilgan hodisalar keng va izohlar bilan ifodalangan. Shuningdek, Asilxonto'ra kitobida otasi aytib bergan voqealarning davomini ham bayon qilib o'tgan. Qisqacha qilib aytganda, Alixonto'ra hayotini to'liqroq o'rganish uchun Asilxonto'raning xotiralarini ham o'qish muhim sanaladi.

Asar kirish, asosiy qism va xotimadan iborat. Kirish qismida muallifning hayot-faoliyatiga

oid ma'lumotlar yoritilgan. Asosiy qism «Sovet hokimiyatining ilk qilmishlari» nomli sarlavha bilan boshlanib, unda sovetlarning makkor va ayovsiz siyosati haqli ravishda tanqid qilingan. Ular o'zlariga qarshi deb bilgan kishilarni tovush chiqmas yerosti uylarda qiynoqqa solib o'ldirgani, omon qolganlarga tuhmat toshlari otilgani, ko'zga ko'rinarlik kishilar esa vatandan ayrilgani, shular qatori Sog'unuyning o'zi ham So'quluq degan joyga ketgani ochiqdangan. Mazkur qismda nafaqat o'sha davr tarixiy-siyosiy jarayonlari yoritilgan, shuningdek, Sog'unuyning hayot-yo'li, g'oyalari ham ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari asarda oldingi davrlar tarixiga oid bir qancha ma'lumotlar ham keltirilgan. Masalan, Sog'unuy Bolasog'un (To'qmoq) shahri tarixi haqida gapirib, u ikki ming yil oldin turk xoqoni Afrosiyob ya'ni, turkchada Duquxonning uchinchi poytaxti bo'lganini, shahar chetida joylashgan katta maydon xalq tomonidan hali ham Afrosiyob deb atalishini yozgan. Shuningdek, bolasog'unlik mashhur insonlar sifatida «Qutadg'u bilik» muallifi Yusuf Xos Hojib, islom olamida mashhur lug'at kitobi «Sihohi Javhariy»ni arabchadan forschaga tarjima qilgan Jamol Qarshiy va «Tarixi Rashidiy» asari yozari Mirzo Haydar Dug'lat Ko'ragonni keltirib o'tgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2007:22-25). Muallif ushbu qismda saljuqiylar sulolasi hukmdori sulton Sanjar bilan qoraxitoylar hukmdori Go'rxonning 1141-yili Banokat shahri yaqinida to'qnashib, unda saljuqiylar qo'shini yengilgani va shundan boshlab Movarounnahr 71 yil davomida qoraxitoylar qo'lida qolganini ham qayd etgan. Bundan tashqari Sog'unuy o'z asarida Olmaliq shahri tarixi, Amir Temur Ko'ragon tarixi va Yoqubbek tarixiga oid qiziq ma'lumotlarni bergan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2007:23-24).

Muallif asarida Turkiston muxtoriyati mavzusiga ham to'xtalib, «Qo'qon muxtoriyatiga aloqador voqealar» sarlavhasi ostida o'z fikrlarini keltirib o'tgan. Sog'unuy yashagan davr bilan bir vaqtda sodir bo'lgan ushbu voqealar 1917-yili bo'lib o'tgan. O'sha yili 26–28-noyabrda Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan Butun Turkiston musulmonlarining favqulodda to'rtinchi qurultoyida Turkiston Muxtoriyati tuzilganligi e'lon qilinadi va uning hukumati tuziladi. Alixonto'ra Sog'unuy ushbu hukumat haqida gapirib, unda polshalik musulmonlardan Og'ayev ismli yurist raisligi ostida o'n ikki kishidan iborat a'zo saylanganini keltirib o'tgan. Sog'unuy ularning orasida akasi Olimxonto'ra ham borligini qayd etgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2007:44-45). Lekin Q.Rajabovga ko'ra, Olimxonto'ra Shokirxonto'rayev o'n ikki kishilik hukumat a'zosi emas, balki Muxtoriyatning 32

kishidan iborat Milliy Majlisi a'zolaridan biri bo'lgan (Rajabov Q., 2021:10-12).

«Turkiston qayg'usi»da so'z yuritilgan siyosiy masalalardan yana biri «bosmachilik harakati (Rajabov Q., 2001:163)» nomi bilan atalgan «milliy ozodlik harakati», «qo'rboshilar harakati»dir. Bu 1918–1935-yillar oralig'ida Turkistonda ozodlik yo'lida yurt himoyachilari tomonidan ruslarga qarshi olib borilgan kurashdir (Hayit B., 1997:1). Alixonto'ra ushbu harakatni 1917–1925-yillar oralig'ida O'zbekistonda bo'lib o'tgan deb ta'riflaydi hamda uning yetakchilari sifatida Qo'qonda Ergash, Marg'ilonda Madaminbek (Rajabov Q., 2011:40) va Shermuhammadbek (Rajabov Q., 2011:56), Andijon, O'sh va O'zganda Xolxo'ja eshon, Ohunjon, Abdurazzoq, Namanganda Omon polvonni (Alixonto'ra Sog'unuy, 2020:58) ko'rsatgan. Muallif o'z asarida ularni bosqinchilarga qarshi kurashib, milliy o'zlikni himoya qilishni maqsad qilgan, oddiy xalq ichidan chiqqan qahramonlar sifatida ta'riflagan. Sog'unuy ularning mag'lubiyat sababini salohiyatli yetakchining yo'qligida deb bilgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2020:58-59).

Sog'unuy «Turkiston qayg'usi»da Chor Imperiyasi va sovetlar siyosatini taqqoslashga ham harakat qilgan. Unga ko'ra, podshohlik davrida turkistonliklar diniy amallarni bajarishda, madrasa ta'limida nisbatan erkin bo'lgan. Johil va uquvsiz insonlar yordamida hokimiyat tepasiga kelgan sho'rolar davrida vaziyat tubdan o'zgaradi. Bu davrda sovetlar xalqlarni o'z erki, dini va tilidan mahrum qilishga uringan va qurol bilan qo'rqitib, o'z mafkuralariga xizmat qildirgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2007:93). Muallif shuningdek, o'zbek xalqini mustamlaka changalidan qutqarish choralari haqida ham o'z fikrlarini bayon etib o'tgan. Unga ko'ra, xalq o'zligini yo'qotmasligi uchun milliy va diniy tuyg'ularni saqlab, himoya qilishi lozim. U Turkiston musulmonlari uchun kelajakda yaxshi kunlar kelishini va mamlakatning bosqinchilar qo'lidan ozod etilishini ishonch bilan ta'kidlagan. Shunday kunlar kelganida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning rejasini, salbiy holatlar yuz berganda ulardan qutulish yo'llarini sanab o'tgan. Shuningdek, Turkiston xalqi imkoniyat tug'ilishi bilan o'z hukumatini tuzishi lozimligi, qaysidir bir xalqning o'z hukumati bo'lmasa, cho'ponsiz qo'y suruvidek, och bo'rilarga yo'liqib, yem bo'lishi mumkinligini aniq voqelik sifatida bayon qilgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2007:99-100).

Alixonto'ra Sog'unuyning qalamiga mansub she'rlar 2021-yili Q. Shokirov tomonidan «Baxtlik nedur» (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:250) nomi ostida to'plam shaklida nashr etilgan bo'lib, unda ellikdan

ortiq she'rlar jamlangan. Ulardan o'ttiz ikkitasi 2005-yili F.G'afforov tomonidan «Bizdan emasdurlar Vatanni sevmaganlar» (Alixonto'ra Sog'unuy, 2005:106) nomi ostida e'lon qilingan. Ushbu yangi to'plamga esa bulardan tashqari Sog'unuyning shu kungacha e'lon qilinmagan, qo'lyozma holida saqlanib kelgan she'rlari ham kiritilib, muallifning avlodlari tomonidan mustaqil asar holida nashr etilgan. Mazkur to'plamning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, undagi she'rlarning beshdan bir qismi kirill va lotin alifbosida shuningdek, turkcha tarjimasi bilan berilgan. Noshir o'zining bu tartibini to'plamning «Taqdim» qismida, qilingan ishlar zoye ketmasligi va kelajakda Sog'unuy she'rlarini boshqa tillarga tarjima qilish oson kechishi uchun qilganini ta'kidlab o'tgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:36). To'plamning kirish qismi «Alloma she'riyati» nomi ostida taniqli shoir M. Kenjabek tomonidan yozilgan bo'lib, unda dastlab Sog'unuyning «Tarixi Muhammadiy», «Turkiston qayg'usi», «Shifo al-ilal», «Asos ul-islom» kabi diniy-ma'rifiy asarlari hamda «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi», «Temur tuzuklari», «Musiqi risolasi» kabi tarjima asarlari xususida to'xtalib o'tgan. U so'zining davomida Sog'unuyning she'rlari tog'risida gapirib, ularning ijtimoiy ruhiyati to'rt g'oyadan, ya'ni xalq, vatan, ozodlik va din qayg'usidan iborat ekanligiga urg'u berib o'tgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:3).

Sog'unuyning «Baxtlik nedur» to'plamidagi she'rlari tabiat manzaralari, ko'klam tasvirlari, shuningdek, olimning o'z ichki kechinmalarini ifodalovchi masnaviylar, tazmin va tatabbu'lar, marsiyalardan iborat. She'rlardan bir nechitasi esa hikmat va nasihat ko'rinishidadir. Uning she'rlari xususida gapirganda shuni unutmazlik kerakki, Sog'unuy avvalambor olimdir va uning she'rlari ham olimlarga xos tarzda bitilgan. Shu sababli bo'lsa kerak, uning she'rlarida islomiy ma'rifat ruhi ustunlik qiladi. Turlicha mavzular Sog'unuyning elparvarlik, yurtparvarlik, mustaqillik va hurriyat tuyg'ulari bilan birlashib ketgan. U vatanni «Shonlik vatan Turkiston» deb atagan va qaramlik asoratini «ayriliq» jumlasini quyidagicha ifodalagan:

«Shonlik vatan Turkiston,
Bizlar sandan ayrilg'on».

Olimning «Shonlik Vatan, omon bo'li!», deb el-yurt haqqiga qilgan duosi ham ulug'vordir.

Sog'unuy o'zining ko'plab she'rlarida Payg'ambar (s.a.v)ning hadisi shariflari ma'nolarini singdirgan. Masalan, olimning «Axloq va nisihat» she'ri Imom Buxoriyning «Sahihi Buxoriy» hadislar to'plamida rivoyat qilingan hadisi sharifning sharhi bilan boshlangan: «Janob Rasululloh sallolohu alayhi

vasallam aytadilar: «Munofiqlarning uchta alomati bor: soʻzlasa, yolgʻon soʻzlar; vaʼda qilsa, bajarmas; omonatga xiyonat qilar»». Ushbu hadisning sheʼriy ifodasi Sogʻuniy tomonidan quyidagicha ifodalangan:

«Uch narsadur munofiqlar belgisi,
Moʻmin odam ondin yiroq boʻlgusi,
Birinchisi yolgʻon qoʻshar soʻziga,
Vaʼda buzar, boqma qaro yuziga.
Uchinchisi, qoʻysa birov omonat,
Saqlamagʻay, qilgʻay unga xiyonat.
Boʻlsa agar bu uch xislat har kimda,
Munofiqdir chini bilan, sharmanda» (Alixontoʻra Sogʻuniy, 2021:39).

Boshqa bir sheʼrida esa u buyuk shoir Alisher Navoiy va temuriy hukmdor Husayn Boyqaroning ustozlari Orif Xoʻjaning «Qarilik yoshlikning qiyomatidir» (Alixontoʻra Sogʻuniy, 2021:49), degan hikmatini batafsil izohlab bergan. Sheʼr oxirida esa Alloh taolo yoʻlida jigari qon boʻlganligini ifodalab oʻtgan.

Sogʻuniy yana bir boshqa sheʼrida Bedil qalamiga mansub boʻlgan quyidagi baytni sharhlashga harakat qilgan:

«Naqshi maʼkusi nigin az sajda meoyad ba rost,
Sarnavishtai vojgunro rost mesozad namoz».

«Muhrning teskari xati sajda qilish bilan oʻnglanadi. Shunga oʻxshash, namoz ham peshonaga yozilgan teskarilikni oʻnga aylantiradi. Shulardan ilhom olib, quyidagi soʻzlarni nazmga chekdim», deydi olim. Bir qancha sheʼriy izohning ketidan muallif namoz va sajdaga quyidagicha taʼrif bergan:

«Namozu sajdadin ayrilma zinhor,
Xudoning qoʻrgʻonidur bu, bilsang, ey yor!»

Sogʻuniy ushbu sheʼrining oxirida imon va namozni oʻxshatishlar orqali ifodalab, xulosa yasagan:

«Musulmon koʻnglida imon chirogʻi,
Chirogʻi yonmagay, boʻlmasa yogʻi.
Qorongʻu uyda oʻlturmas chirogʻsiz,
Chirogʻ koʻrmas kishi hech yerda yogʻsiz.
Namoz yogʻi erur imon chirogʻi,
Bu soʻzni anglagʻil, ey koʻz qarogʻi.
Muni men aytmadim, Qurʼon soʻzidur,
Oʻqub, nazm aylaguvchi Sogʻuniydir».

Mazkur sheʼriy toʻplam Sogʻuniyning qalb daftari, oshiqlik va oriflik guvohnomasi sifatida taʼriflangan (Alixontoʻra Sogʻuniy, 2021:7). Bu toʻplamda kirill alifbosida yozilgan sheʼrlar lotin yozuvida ham keltirilgan. Ushbu yozuvda qoʻllanilgan harflar orasida «sh», «ch» va «gʻ» harflarini ifodalash uchun bugungi kunda Turkiya Respublikasida muomalada boʻlgan «ş», «ç», «ğ» harflari qoʻllanilgan. Ushbu toʻplam ichida turk tiliga tarjima qilingan sheʼrlar ulushi

beshdan birni tashkil etib, tarjimalar Oʻ. Doʻgʻon va S. Unal tomonidan amalga oshirilgan (Alixontoʻra Sogʻuniy, 2021:24).

Alixontoʻra Sogʻuniy qalamiga mansub boʻlgan asarlardan yana biri «Jungʻoriyada oʻzgʻon inqilobiy voqealar» (Alixontoʻra Sogʻuniy, 2021:14-16) nomi ostida Q. Shokirov tomonidan 2021-yili chop etilgan. Ushbu asar nashr etilishidan 70 yil oldin arab harflari bilan qoʻlyozma shaklida bitilgan boʻlib, u Sogʻuniyning shaxsiy arxividan, oldin eʼlon qilinmagan materiallar orasidan olimning avlodlari tomonidan topilgan. Asar boshi va oxiri yagona rejaga asoslanib yozilgan asarlar sirasiga kirmaydi. Lekin undagi maʼlumotlarning koʻpi Sharqiy Turkistonning XX asr oʻrtalariga oid tarixidan iboratligi sababli asar noshir tomonidan umumiy bir sarlavha ostida, yaʼni «Jungʻoriyada oʻzgʻon inqilobiy voqealar» nomi bilan atalgan. Bu nomning tanlanishiga esa, topilgan yangi qoʻlyozmalardan eng kattasi muallif tomonidan «Jungʻoriyada boʻlib oʻzgʻon inqilob voqealari daftari» deb atalgani sabab boʻlgan.

Ushbu toʻplam noshir tomonidan shartli ravishda besh qismga ajratilgan. Uning soʻngi qismlari asar sarlavhasiga aloqador boʻlmagan, avtobiografik xarakterga ega. Asarning qoʻlyozmasida oʻchib ketgan baʼzi soʻzlar noshir tomonidan uch nuqta bilan berilgan, tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlarga soʻroq belgisi qoʻyib ketilgan hamda ahamiyatga molik jumlar quyuq rangli shrift orqali ifodalangan. Toʻplamdagi alohida matnlardan shuni taxmin qilib aytish mumkinki, bu muallif tomonidan rejalangan katta bir asarning tarkibiy qismlari boʻlgan boʻlsa, ajab emas. Toʻplamning tarkibiy tuzilishi besh qismdan iborat:

Birinchi qism «Xoʻjaniyoz hoji inqilobi haqida qisqacha maʼlumot» deb nomlanib, unda 1931-yili Qumul shahrida tarkibida uygʻurlardan tashqari dungan va qirgʻizlar ham boʻlgan Xoʻjaniyoz hoji va Yoʻlbarsxon boshchiligidagi koʻtarilgan qoʻzgʻolon bayon etilgan. Unda taʼkidlanishicha, Sogʻuniy mazkur qoʻzgʻolon davrida ushbu hudud yaqinlariga kelib joylashgan, ammo unga qoʻshilmagan. Boshqa manbalardagi maʼlumotlarga qaralsa, Qumul qoʻzgʻolonini bostirish uchun Jing Shurin hukumati general Sheng Shisay (Allen S., 1958:314) boshchiligidagi qoʻshin joʻnatgan. Ammo Sheng Shisay qoʻzgʻolonchilar bilan ittifoq tuzib, Jing Shurinni Urunchidan chiqib ketishga majbur qilgan hamda «oʻn toʻrt millat huquqda barobar» degan qogʻoz ustidagi yasama-yolgʻon xalq hukumati nomi ostida yangi hukumat tashkil etgan. Uning raisi etib Sheng Shisay, rais muovini etib esa Xoʻjaniyoz hoji

saylangan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:14). Lekin inqilobiy harakatdan uch-to'rt yil o'tmay, Shing Shisay Xo'janiyoz boshliq uning tarafdorlaridan oldinma-ketin inqilobga aralashgan-aralashmagan, yurtning ko'zga ko'rinarlik kishilarining barchasini qamoqqa oladi. Hattoki bolsheviklarning zulmi sabab Samarqand va Farg'ona tomonlardan Qashg'arga qochib kelgan ko'plab ziyoli insonlar ham ularga qo'shilib qamalgan. Sog'unuy ham shular qatorida bir oy Kuchor turmasida, besh yil Oqsu shahrining zax zindonida yotgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:16-17). Sog'unuy asarning ushbu qismida Xo'janiyoz hojining tarjimai holiga ozroq to'xtalib, quyidagicha tariflaydi: «O'zi ong-bilim sohasidin yiroq, dunyo turmushidin ko'zi yumuq, olamdin xabari yo'q, tog'-toshlarda ov ovlab, miltiq otib yurgan, qo'rqmas yurak, qora boturlardan ekandur» (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:15). Sog'unuy ushbu inqilobiy harakat voqealarining ba'zilarini o'zining «Turkiston qayg'usi» asarida ham eslab o'tgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2020:287-291).

Ikkinchi qism, «Ozodlikka chiqish» deb nomlanib, Sog'unuy uni dastlab «Turkiston qayg'usi» asari uchun qoralama sifatida yozgan, lekin oqqa ko'chirilmay, qo'lyozma holida qolib ketgan. Bu matnning asl qo'lyozmasi 15 varaqli daftarning 12 betiga yozilgan. U 2020-yil avgust oyida Toshkentda muallifning shaxsiy arxividan Q. Shokirov tomonidan topilib, shartli sarlavha ostida eski o'zbek yozuvidan kirill imlosiga o'girilgan. Sog'unuy mazkur qismda Kuchor va Oqsu zindonidan o'zining ozod bo'lishi va undan keyin boshidan o'tkazgan voqea-hodisalarni qog'ozga tushirgan.

Sog'unuy yig'ma asarning mazkur qismida nima uchun musulmonlar xususan, turkistonliklar dushmanga mag'lub bo'lib, qal'a devorlari yiqitilib, xarob holga kelib qolgan, degan savolga quyidagicha javob berib o'tgan: «Agar Qur'onda «Dushmanga qarshi eng kuchlik qurol tayyorlanglar», hadisidagi «O'z zamoninglarni yaxshi tushininglar» degan shu ikki og'iz so'zga amal qilgan bo'lsak, biz musulmonlar shu kundagi rasvolik holga qolmagan bo'lar edik» (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:32). Muallif ushbu qismning oxirida ikkinchi jahon urushi boshlanib, ikki Turkistondagi yerlik xalqlar uchun qutulish umidlari paydo bo'lgani haqida gapirib, o'z so'zini yakunlagan.

Uchinchi qism, «Jung'oriyada bo'lib o'zg'on inqilob voqealari daftari», deb nomlangan. U ham Sog'unuyning oqqa ko'chirilmay qolgan qo'lyozmalaridan hisoblanib, umumiy 46 sahifadan iborat. Mazkur matn ham 2020-yilning avgust oyida Toshkentda muallifning shaxsiy arxividan topilib, Q.Shokirov va Abdullaxon Asilxon o'g'li tomonidan

birgalikda eski o'zbek yozuvidan kirill yozuviga o'girilgan. Ushbu qism mazkur asarning asosiy matnini tashkil etib, unda Alixonto'ra Sog'unuy o'zi ko'rib guvoh bo'lgan voqea hodisalarni tilga oladi. Birinchi va ikkinchi qismdagi asosiy ma'lumotlar ushbu qism boshida so'zma-so'z takrorlangan o'rinlar mavjud. Asosiy e'tibor esa 1944-yildan boshlangan ozodlik harakatlariga qaratilgan. Sog'unuyning ta'kidlashicha, ushbu davrga kelib, xitoy hukumati bilan sovetlar hukumati ham siyosiy, ham iqtisodiy aloqalarda birbiridan uzoqlashgan. U bo'lajak inqilobga dastlabki qadamni 1944-yil ro'za oyi davomida G'ulja shahrida joylashgan Baytulloh masjidida kunda uch soat va'z majlisi o'tkazib, xalqni inqilobga da'vat qilish bilan boshlaganini alohida ta'kidlab o'tgan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:50). «Shinjong uch viloyat inqilobiga doir katta ishlar xotirasi» nomli asarda ham Alixonto'raning ushbu faoliyati Xitoyning siyosiy mafkurasiga bo'ysundirilgan holda «feodal yuqori qatlam diniy zotlar» maxfiy til biriktirib, G'uljadagi Baytullo masjidini faoliyat nuqtasiga aylantirgani, diniy udumlardan foydalanib, omma o'rtasida targ'ibot olib borgani, ushbu targ'ibotlarda Sheng Shisay va Gomindan hukumatiga qarshi turish mazmuni, milliy bo'lginchilik, panturkizm, panislomizm g'oyalari mavjud bo'lgani ta'kidlangan (Muhammed Saur, Abdulloh Avt, Kurash Tursun, 1990:11).

Shuningdek, Sog'unuy mazkur qismda sovetlarning Shinjongdagi vitse-konsuli Borisov sovetlar davlati boshlig'i Stalin nomidan berilgan yetti banddan iborat va'dani sanab o'tgan. Bunga ko'ra, Sharqiy Turkiston tuprog'ida jumhuriyat asosida mustaqil uyg'ur hukumatini tuzish; inqilob uchun lozim bo'ladigan barcha qurol-yarog' va boshqa har turlik asbob-uskunalar hamda bularni ishlatishni o'rgatadigan kishilar bilan to'liq yordam berish; ushbu maqsad yo'lida soyuzlar bilan iqtisodiy, siyosiy aloqa o'rnatish; zarurat tug'ilganda chegaradosh turkistonlik musulmon qardoshlar orqali askariy yordam yetkazish; maqsadga erishilgunga qadar, sovet hukumati hech qachon yordam qo'lini tortmasligi; ichki qurilishlarda xalq istagiga qarshi bo'lgan biror o'zboshimchalik qilmasligi; sovet hukumati vakillari bilan bamaslahat ish olib borishi lozim ekanligi ko'zlangan (Alixonto'ra Sog'unuy, 2021:52-53).

Mazkur qismda shuningdek, 1944-yil aprel oyida tuzilgan, ichki a'zolari soni o'n ikkita bo'lgan «Ozodlik tashkiloti» va uni kuchaytirish yo'lidagi sa'y-harakatlar, mazkur yilning sentyabr oyida esa Ilining sharqiy qismida joylashgan Nilki tog'larida uyg'ur Abdulg'ani botir, no'g'oy Fotih Muslim o'g'illari tomonidan ko'tarilgan qurolli qo'zg'alon haqida so'z

yuritilgan. Davomida esa xitoy hukumatiga qarshi G'uljada sodir bo'lgan to'qnashuvlar, Sog'unining Sharqiy Turkiston xalq hukumatini tuzish haqidagi murojaati, sakkiz kishidan iborat hukumat a'zolarining saylanishi haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

To'rtinchi qism, «Qilingan xizmatlar haqida esdaliklar» deb nomlanib, unda xotin-qizlar erkinligi, so'z erkinligi, qahramonlarni taqdirlash, birlikni saqlash va tarixiy suhbat, teskari tashviqotga qarshi kurash, ishonchni oqlash mas'uliyati, bir ingliz josusi va tashviqotimiz natijalari, deb nomlangan kichik qismlarga ajratilgan va ular haqida bir qancha esdalik xotiralar qayd etilgan.

Yig'ma asarning beshinchi qismi, «Boshlang'ich so'z yoxud tarjimaiy holim» deb nomlanib, unda Sog'un y qalamiga mansub bo'lgan, lekin oqqa ko'chirilmay qolib ketgan 12 betlik qo'lyozma matn o'z ifodasini topgan.

NATIJA

Xitoyda Gomindan hukumati hokimiyatga kelgach, Sharqiy Turkistondagi vaziyat ham bir oz yengillashdi. Sog'un y tili bilan aytganda: «Mundin keyingi kunlari siyosat ishlarida ancha o'zgarishlar bo'lg'oni turdi. Shundoqki, Sov jujong Urumchig'a borib, bir-ikki oy o'tishi bilan o'z va'dasi bo'yicha har kuni degudek qamoqdagi kishilar bo'shanishga boshladi» (Alixonto'ra Sog'un y, 2021:19). Muallif besh yillik qamoq kunlarini eslab, mazkur muddat oralig'ida o'zining oilasi va boshqa birorta do'sti holidan xabar olmaganligini, shu sababli, qamoqdan qutulishi bilanoq qashg'arlik savdogar Baxti oxun bilan birga hech yoqqa qaramay Bejin-Tanzin orqali hajga o'tlanib, dunyo bo'ylab sayohat qilmoqchi bo'lganini yozadi. Bu fikridan qaytish sababini esa o'g'li Asilxon uni ko'rish uchun kelganida qolgan uy-oila, bola-chaqalarini eslab, ularning mehr-muhabbatlarini qaytadan qumsaganligi bilan izohlagan (Alixonto'ra Sog'un y, 2021:20-22). Jumlaning davomida mahbuslar tomonidan «ko'k kaptar» deb ataluvchi Xitoy ma'muri bilan bo'lgan suhbat quyidagicha tasvirlangan: ««Siz yaxshi kishi ko'rinasiz, qayoqdan kelgansiz?» deb so'rab edi, men ham to'g'risini aytib: «Sovet hukumatining zulmidin qochib, ulug' Jungo adolatiga sig'inib kelgan bir tabib kishi edim, biroq aning hukmidan chiqqan bo'lsam ham, aning zulmidan qutula olmadim», degach, «Yo'q, endi qutulding, u yoqda o'tgan jinoyat bu yoqda so'ralmaydi. Hozirda seni bo'shandi deb hisoblaymiz...», deb ...ruxsat qildi» (Alixonto'ra Sog'un y, 2021:20-22). O'zining qamoqdan ozod bo'lish sanasini esa «1941-yili aprel oyi», deb

ko'rsatgan. Olimning asarlarida Alixonto'raning ushbu qamoq davri va undan ozod bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlar deyarli keltirilmagan. Chunki, asardagi bu davrga oid ma'lumotlar Sog'unining o'g'li Asilxonto'ra xotiralariga asoslangan. Ushbu yangi to'plamdagi ma'lumotlar esa Sog'unining o'z qalamiga mansub bo'lganligi uchun batafsil yoritilgan (Alixonto'ra Sog'un y, 2020:336-341).

Alixonto'ra Sog'un yning bizgacha yetib kelgan «Tarixi Muhammadiy», «Turkiston qayg'usi» asarlari hamda «Shifo al-ilal», «Uyg'onaylik, uyg'onish davri keldi» risolalari hamda «Bizdan emasdir lar vatanni sevmaganlar» kabi she'riy to'plami bugungi kunda olimlar va tadqiqodchilar tomonidan batafsil o'rganilib, keng jamoatchilikka taqdim etildi. Tadqiqot natijalaridan olim nafaqat harbiy sohada, balki tarix, islom ilmlari, islom tarixi, she'riyat, tibbiyot ilmlari, siyosat kabi sohalarda ham qator ilm sohibi bo'lganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Qolaversa, olimning Sharqiy Turkiston va Uyg'ur xalqi uchun qilgan xizmatlari alohida tahsinga sazovor.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yurtimiz hududlarida o'tmishda yozilgan asarlarning aksariyat qismi arab va fors tilida bitilgani sababli mazkur asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish va keng kitobxonlar ommasiga yetkazib berish muammosi paydo bo'ldi. Mutafakkir olim Alixonto'ra Sog'un y ana shunday masalani oldindan ko'ra bilgan insonlardan sanaladi. Alixonto'ra Sog'un y qochqinlik va tutqunlik davrlarida, shuningdek, Sharqiy Turkistondan olib chiqib ketilgach, Toshkentda o'tkazgan umri davomida ilm va ma'rifat bilan mashg'ul bo'lib, bir qancha asarlarga mualliflik qildi. «Tarixi Muhammadiy», «Turkiston qayg'usi» asarlari hamda «Shifo al-ilal», «Uyg'onaylik, uyg'onish davri keldi» risolalari hamda «Bizdan emasdir lar vatanni sevmaganlar» kabi she'riy to'plamlari o'z yozilish tarixiga ega bo'lib, ularda bugungi kunda ham dolzarb bo'lib turgan diniy-ma'rifiy va Vatan tarixiga oid masalalar yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, «Buxoro yohud Movarounnahr tarixi», «Musiq a risolasi», «Navodir al-vaqoye'», «Temur tuzuklari» kabi asarlarga tarjimonlik ham qildi. Ushbu tarjima asarlarning barchasi o'z davri va sohasi bo'yicha shoh asarlar sanaladi. Ularning har biri alohida yozilish tarixi va shart-sharoitlariga ega ekani hamda ularda Vatanning ulug' tarixi, yurt ravnaqi, yoshlar uchun pand-nasihad hamda san'at bilan bog'liq masalalar yoritilgani ko'rib o'tildi. Xususan, yuqorida

tavsifi keltirilgan «Temur tuzuklari»ning birgina o'zi naqadar qiymatli asar ekanligi barchaga ma'lum. Shu sababli olimning ilmiy merosini tizimli tadqiq etish, uning asarlarida bayon etilgan yoshlarni ilm-ma'rifatga undovchi qimmatli fikrlarni keng targ'ib etish hamda Alixonto'ra Sog'unij xotirasini tiklash tadqiqotchilar oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alixonto'ra Sog'unij. (1996). Shifo al-ilal // Sharq yulduzi jurnali, 6-son.
2. Alixonto'ra Sog'unij. (2005). Bizdan emasdir lar vatanni sevmaganlar. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti.
3. Alixonto'ra Sog'unij. (2007). Turkiston qayg'usi (Nashrga tayyorlovchi: Hoji Abdurashid Karimiy). Myunxen Germaniya: Jahon Uyg'ur Kongressi nashri.
4. Alixonto'ra Sog'unij. (2020). Turkiston qayg'usi (nashrga tayyorlovchi: Qutlug'xon (Ediqut) Shokirov. Toshkent: Sharq.
5. Alixonto'ra Sog'unij. (2020). Turkiston qayg'usi (nashrga tayyorlovchi: Qutlug'xon (Ediqut) Shokirov. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Alixonto'ra Sog'unij. (2021). Baxtlik nedur (she'rlar to'plami). Toshkent–Istanbul.
7. Alixonto'ra Sog'unij. (2021). Jung'oriyada o'zg'on inqilobiy voqealar. Toshkent–Istanbul.
8. Alixonto'ra Sog'unij. (2021). Jung'oriyada o'zg'on inqilobiy voqealar. – Toshkent–Istanbul.
9. Allen S. Whiting. (1958). Sheng Shih-ts'ai. Sinkiang: Pawn or Pivot?. – East Lansing: Michigan State University Press.
10. Almazbekov Sh. (2015). Benazir ustoz yoxud Alixonto'ra Sog'unij tibbiy me'rosiga bir nazar. Toshkent: Navruz nashriyoti.
11. Muhammed Saur, Abdulloh Avt, Kurash Tursun. (1999). Shinjon. Uch viloyat inqilobi tarixi. Millatlar matbuoti.
12. Rajabov Q. (2001). Bosmachilik // O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O'z ME). 2-jild. Toshkent: «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.
13. Rajabov Q. (2011). Shermuhammadbek. Toshkent: Abu matbuot-konsalt.
14. Rajabov Q. (2021). Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy Majlis a'zolari hayoti va taqdiri. Toshkent: Bodomzor Invest.
4. Alikhantura Saghuni. (2020). Turkiston qayg'usi (published by Qutlug'xon (Ediqut) Shokirov. Tashkent: Sharq.
5. Alikhantura Saghuni. (2020). Turkiston qayg'usi (published by Qutlug'xon (Ediqut) Shokirov. Tashkent: Sharq nashriyoti.
6. Alikhantura Saghuni. (2021). Baxtlik nedur. Tashkent–Istanbul.
7. Alikhantura Saghuni. (2021). Jung'oriyada o'zg'on inqilobiy voqealar. Tashkent–Istanbul.
8. Alikhantura Saghuni. (2021). Jung'oriyada o'zg'on inqilobiy voqealar. – Tashkent–Istanbul.
9. Allen S. Whiting. (1958). Sheng Shih-ts'ai. Sinkiang: Pawn or Pivot?. – East Lansing: Michigan State University Press.
10. Almazbekov Sh. (2015). Benazir ustoz yoxud Alixonto'ra Sog'unij tibbiy me'rosiga bir nazar. Tashkent: Navruz.
11. Muhammed Saur, Abdulloh Avt, Kurash Tursun. (1999). Shinjon. Uch viloyat inqilobi tarixi. "Millatlar" publishing house.
12. Rajabov Q. (2001). Bosmachilik // O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O'z ME). 2nd volume. Tashkent: «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi».
13. Rajabov Q. (2011). Shermuhammadbek. Tashkent: Abu matbuot-konsalt.
14. Rajabov Q. (2021). Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy Majlis a'zolari hayoti va taqdiri. Tashkent: Bodomzor Invest.

REFERENCES

1. Alikhantura Saghuni. (1996). Shifo al-ilal // "Sharq yulduzi" journal, Issue 6.
2. Alikhantura Saghuni. (2005). Bizdan emasdir lar vatanni sevmaganlar. Tashkent: Movarounnahr.
3. Alikhantura Saghuni. (2007). Turkiston qayg'usi (published by Haji Abdurashid Karimi). Germany: World Uyghur Congress publishing.



ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ

Мазкур нашр олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари,
мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари,
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Таҳририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

4/2023

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

Манзилимиз: Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази,
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

Тел: (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** www.maturidijournal.uz

E-mail: info@maturidiy.uz

Нашриётнинг лицензия рақами AI № 0011. 06.05.2019 йил.
Босишга 28.12.2023 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 1/8.
Ризограф усулда босилди. Шартли босма табағи 10,2.
Нашр табағи 10,4. Буюртма № 20.
Баҳоси шартнома асосида.

«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.



IMOM MOTURIDIY

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية